



SANOAT KLASSTERLARI FAOLIYATINING IQTISODIY O‘SISHGA TA‘SIRINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)

Samiyev Ulug‘bek Iskandarovich

<https://orcid.org/0009-0006-6820-0502>

Samiyev1106@mail.ru

Annotasiya. Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan texnopark va sanoat klasterlarining mintaqaviy iqtisodiy o‘rishga ta‘siri statistik va ekonometrik modellar asosida yoritiladi. Tadqiqotda innovatsion faoliyat, ishlab chiqarish samaradorligi, investitsiya oqimlari va bandlik ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklar statistik ma‘lumotlar asosida tavsiflanadi. Texnopark va klasterlarning hududiy iqtisodiy jarayonlardagi ahamiyati hamda ularning rivojlanish tendensiyalari ekonometrik yondashuvlar nuqtayi nazaridan bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: Kichik sanoat zonalari, iqtisodiy samaradorlik, statistika, ekonometrika, hududiy iqtisodiyot, investitsiyalar, bandlik ko‘rsatkichlar, institutsional omillar.

Mintaqaviy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi, innovatsion ishlab chiqarishni rag‘batlantirish va qishloq xo‘jaligi hamda sanoat mahsulotlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirish O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Shu nuqtai nazardan texnoparklar va sanoat klasterlari hududiy iqtisodiy o‘rishni rag‘batlantiruvchi strategik infratuzilmalar sifatida e‘tiborga olinadi.

Qashqadaryo viloyati innovatsion va sanoat salohiyati yuqori hududlardan biri bo‘lib, texnoparklar va klasterlar orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va investitsiya jalb qilish imkoniyatlari mavjud. Ushbu infratuzilmalar hududiy iqtisodiy integratsiyani kuchaytiradi, innovatsion loyihalarni



tatbiq etish va eksport salohiyatini kengaytirishga xizmat qiladi. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan 2025–2026 yillarga mo'ljallangan qarorlar mintaqaviy sanoat va innovatsion rivojlanishni jadallashtirishga qaratilgan. Jumladan, 2025-yil 10-oktabrda imzolangan farmonda texnoparklar va sanoat klasterlarining investitsiya jalb qilish, ish o'rinlari yaratish va hududiy YaHMni oshirishdagi roli belgilab qo'yilgan. Shu bilan birga, har bir viloyatda innovatsion loyihalarni rivojlantirish va eksport salohiyatini kengaytirish bo'yicha maxsus chora-tadbirlar belgilangan. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda 2025-yil holatiga 32 ta texnopark va 353 ta sanoat klasteri faoliyat yuritmoqda, ularda 8 mingdan ortiq korxona faoliyat olib boradi. Texnopark va klasterlar faoliyati natijasida mintaqaviy YaHM va ishlab chiqarish hajmlari sezilarli darajada oshib bormoqda.

Ushbu tadqiqotning maqsadi — Qashqadaryo viloyati misolida texnopark va sanoat klasterlarining mintaqaviy iqtisodiy o'sishga ta'sirini statistik va ekonometrik modellar orqali baholash, shuningdek, ularning rivojlanish tendensiyalari va hududiy iqtisodiy jarayonlardagi o'rni haqida ilmiy ma'lumotlar taqdim etishdir.

Viloyatda mavjud klaster korxonalarining ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish darajasini olingan natijalar asosida tahlil qiladigan bo'lsak, yetarli darajada foydalanilmayotganligi aniqlandi. Bunda aynan yer resurslari, aylanma kapitaldan foydalanish samaradorligini oshirish lozim.

Viloyat qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hududiy ko'lamdan kattaligini hisobga olganda, hududning ishlab chiqarish potensialidan foydalanish samaradorligini baholash uchun klasterli tahlil usulidan foydalanish samarali ekanligi aniqlandi, Klasterli tahlillash natijalariga asoslanib, amaliy natijalarni ifodalovchi ishlab chiqilgan modellar Qashqadaryo viloyat misolida taklif etildi.

Bevosita qishloq xo'jaligi bilan bog'liq, hozirgi davrda agrar sohasidagi klasterlar rivojlanayotgan bir paytda SULTON TEX GROUP paxta-to'qimachilik klasteri faoliyati tahlil qilindi va uning ishlab chiqarishi bilan bog'liq bo'lgan omillar ko'rib chiqildi (1-jadval).



1-jadval

Qashqadaryo viloyati SULTON TEX GROUP paxta-to'qimachilik klaster mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlari

Yillar	Ishlab chiqargan mahsulotlari sotuv hajmi (mlrd. so'm)	Ip- kalava ishlab chiqarish (tonna)	Mato ishlab chiqarish (tonna)	Ish o'rinlari (birlikda)	Export hajmi (ming dollar)
			X2		X4
Y		X1		X3	
2019	150,532	6 316,00	212	253	9 470,00
2020	226,079	6 222,00	422	633	13 890,00
2021	250,775	5 711,00	518	618	14 100,00
2022	276,258	5 709,00	842	727	17 526,00
2023	445,345	10 810,00	636	750	19 427,00
2024	440,019	12 773,00	712,00	768	21 617,00

Klasterlashning Ijobiy tomonlari , Ishlab chiqarish hajmi va eksport t eish o'rinlari yaratildi, malakali kadrlar soni oshdi, yangi texnologiyalar va energiya tejovchi uskunalar joriy etildi. Salbiy tomonlari 2024-yilda sotuv hajmida biroz pasayish kuzatildi. Mato ishlab chiqarish hajmida tebranishlar mavjud. Eksportga haddan ortiq qaramlik valyuta risklarini oshiradi. Jadvaldan ko'rib turganimizdek 2019–2024 yillar oralig'ida to'qimachilik klaster korxonalarining ishlab chiqarish, sotuv va eksport natijalarini tahlil qildik. Tahlil natijasiga ko'ra, klaster korxonalari 3 ta asosiy bosqichda rivojlangan:

1-jadval

Asosiy ko'rsatkichlar (o'rtacha qiymatlar)



Bosqich	Sotuv (mlrd so‘m)	Ip-kalava (t)	Mato (t)	Ish o‘rinlari (ta)	Eksport (ming \$)
Phase-1 (Seed)	≈210	6 083	384	501	12 487
Phase-2 (Build-out)	≈276	5 709	842	727	17 526
Phase-3 (Scale-up)	≈443	11 792	674	759	20 522

Uch bosqich solishtiruviga ko‘ra, klasterning rivojlanishi izchil: Phase-1 (Seed)da sotuvlar ~210 mlrd so‘m bo‘lib, ichki barqarorlashuv va boshlang‘ich eksport (~12,5 ming \$) bosqichi; Phase-2 (Build-out)da mato hajmi 842 t ga sakrab, quvvatlar ishga tushgani va konversiya zanjirida (ip-kalava → mato) samaradorlik oshganini ko‘rsatadi; Phase-3 (Scale-up)da sotuv ~443 mlrd so‘m va ip-kalava 11,8 ming t ga yetib, bandlik 759 ta va eksport 20,5 ming \$ bilan masshtablashuv hamda bozor kengayishini tasdiqlaydi. Demak, klaster vertikal integratsiyani chuqurlashtirib, hajm va qiymatni oshirgan; biroq Phase-2 dagi mato piki (842 t)dan keyingi daraja (674 t) jarayonlarda “bottleneck”lar ehtimolini bildiradi — sifat barqarorligi, bo‘yoq-apret quvvatlari va mahsulot miksi strategiyasini yanada nozik boshqarish eksportda yuqori marjani ushlab turishga yordam beradi.

Bizning tavsiyamiz klaster korxonalari qisqa vaqt ichida sezilarli rivojlanishga erishgan. Endilikda ular raqamlashtirish, mahsulot sifatini yaxshilash va eksport bozorlarini diversifikatsiya qilishga e‘tibor qaratishi kerak. Sotuvdagi pasayishni tahlil qilish va mahsulot turlarini optimallashtirish lozim. Mato ishlab chiqarish liniyalarini modernizatsiya qilish kerak. Eksport bozorlarini kengaytirish va yangi sertifikatlar olishkerak. Energiya samaradorligini oshirish orqali xarajatlarni kamaytirish. Umuman olganda, klaster korxonalari qisqa muddat ichida barqaror o‘sinh va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda sezilarli natijalarga erishgan. Endilikda asosiy e‘tibor ishlab chiqarish unumdorligini fiksatsiya qilish,



avtomatlashtirish va texnik servis tizimlarini kuchaytirish orqali mehnat samaradorligi trendini davom ettirishga qaratilishi lozim. Shu bilan birga, chuqur qayta ishlash bosqichlarini kengaytirish — ya'ni mato ishlab chiqarish, bo'yash va tayyor kiyim tayyorlash jarayonlarini modernizatsiya qilish — mahsulotning qo'shimcha qiymatini va eksport marjasini oshiradi. Eksport/savdo nisbatidagi pasayishni bartaraf etish uchun eksport portfelini diversifikatsiya qilish, yuqori qiymatli bozorlar (Yevropa Ittifoqi, GCC mamlakatlari) bilan hamkorlikni kengaytirish, OEM/Odm kontraktlarini rivojlantirish hamda brendlashga sarmoya kiritish muhimdir. Shuningdek, "bottleneck" auditori asosida ishlab chiqarish bo'g'inlarini sinxronlashtirish, energiya samaradorligini oshirish, mahsulot turlarini optimallashtirish va yangi sertifikatlar olish orqali klasterning raqobatbardoshligini yanada mustahkamlash zarur.

FAYDALANILGAN ADABIYOT VA MANBALAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 20 dekabrdaqi «Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining daromad manbaini kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-55-son // <https://lex.uz>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30 dekabrdaqi PQ-77-son "Hunarmandchilik faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori. // <https://lex.uz/docs/5807559>
3. Basco, R. Family business and regional development - A theoretical model of regional familiness. Journal of Family Business Strategy (2015), <http://dx.doi.org/10.1016/j.jfbs.2015.04>
4. Banalieva E.R., Eddleston K.A., Zellweger T.M. When do family firms have an advantage in transitioning economies? Toward a dynamic institution-based view // Strategic Management Journal. – 2015. –T. 36. -№ 9.
5. O'lmasov A. Oila iqtisodiyoti. Toshkent – "Mexnat"- 1998.;
6. Pardaev M.Q. Oila xo'jaligi iqtisodiyoti va tadbirkorligi. Samarqand 2001 y.;
7. **Norqobilova. F. A.** International scientific and practical conference // Iqtisodiy erkinlik indekisi hunarmandchilik sohasini rivojlantirishdagi roli



(zenodo.org), 2023. – p 255-257

8. Arens R. Complex processes for envelopes of normal noise // IRE Trans. Inform. Theory, Sept. 1957, vol. IT-3, pp. 204-207.

9. Mukhitdinov Khudoyar Suyunovich¹, Norqobilova Feruza Abdihamidovna².
// Prospects Of Digitalization Of Craftsmanship Development In The Region /
Journal of Pharmaceutical Negative Results: Volume 13: Special Issue 9: 2022.